

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA IRODA ODILOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “FOOD/OZIQ-OVQAT”
KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLAR TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Raxmonova Iroda Odilovna

Ingliz va o‘zbek tillarida “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologizmlar tadqiqi.....3

Rakhmonova Iroda Odilovna

Study of phraseological units with the component “food” in English and Uzbek languages.....25

Рахмонова Ирода Одиловна

Исследование фразеологизмов с компонентом «еда» в английском и узбекском языках.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....51

Поvalar

Appendixes

Приложения.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA IRODA ODILOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “FOOD/OZIQ-OVQAT”
KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLAR TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4886 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Umarova Nargizaxon Rustamovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Sadiqov Zohidjon Yaqubjanovich filologiya fanlari doktori, professor Nasrullayeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti hoziridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil « 21 » iyun soat 8.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'omoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (533 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Marabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 9 » iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil « 9 » iyun dagi 34 raqamli reyestr hayotnomasi).



97

G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda frazeologik birliklarning frazeosemantik sohaga tegishli komponentlarini tahlil qilish dolzarb muammolardan sanaladi. Ma'lumki, frazeologiya tillarning madaniy va tarixiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Har qanday tilda frazeologik tizim tilning jonli va doimiy rivojlanishda ekanligini ko'rsatadi. Frazemalarning leksik tarkibi xilma-xil bo'lib, ular etnosning geografik joylashuvi, xalqning turmush tarzi, urf-odat va an'analari bilan chambarchas bog'liq. Frazeologiya sohasining o'rganilishi globallashuv davrida tillararo va madaniyatlararo muloqotning samarador bo'lishiga yaqindan yordam beradi. Tillarning qiyosiy tadqiqida frazeologik tarkibi bir xil bo'lgan turlarni, ular semantikasidagi o'xshashliklarning namoyon bo'lish holatlari va omillarini aniqlash imkoniyati mavjud, chunki bunday yondashuvda frazeologizmlar universallik va differentsiallik xususiyatlarini to'liq namoyon etadi. Ular tarkibi semantik jihatdan xilma-xil bo'lib, ayniqsa, gastronomik komponentli frazemalar har bir tilda o'zining yuqori salmog'i bilan ajralib turadi. Tildagi frazeologik tizim o'zining bir qator semantik va madaniy xususiyatlariga ega. Bu jihatlarni o'rganish tilshunoslikda alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida hozirgi kunda frazeologik birliklar eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubligi, ularning taraqqiy etish holatlari va intensivligi, bu birliklarda madaniy kodlarning mavjudligi, ifodalovchilarning majoziyliigi hamda metaforizatsiya imkoniyati, shuningdek, iboralar bilan bog'liq bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar sohaning keng qamrovli tadqiqini talab qilmoqda. Tilshunoslikda substantiv iboralar to'liq yoki qisman ko'rib chiqilgan asosiy frazeologik birliklar hisoblanadi. Ularning komponent tahliliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Har bir til jamoasi ongidagi frazeologik obrazlar tizimi majoziy tarzda idrok etishning milliy o'ziga xos jihatlarni namoyon etadi. Frazeologik birliklarni bilish va ulardan foydalanish so'zlovchiga frazemalar qo'llanayotgan kontekstni yaxshiroq tushunishga, muloqot ishtirokchilari tiliga xos madaniy xususiyatlarni aniq belgilashga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, boshqa til birliklari kabi frazeologizmlar lug'at tarkibining boyishiga, nutqiy muloqotda ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, frazeologik birliklar lingvistik shaxsning muloqot qobiliyati va til madaniyatini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Ushbu jihatlari qiyosiy tilshunoslikda frazeologiya tadqiqi doirasini kengaytirishning nazariy asoslarini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda milliy tilni boshqa tillarga chog'ishtirish orqali uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish hamda o'zbek tilini rivojlangan tillar qatoriga qo'shish davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi, "...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish", "davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda

mutaxassislarining malakasini oshirishda ko‘maklashish”¹ ga zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalari sifatida qaralmoqda. Frazeologik birliklar tadqiqiga chog‘ishtirma yondashuv asosida turlicha lisoniy olam manzaralarini va uning milliy manzaralarini katta bilim bloklari periferiyasiga kiritish mumkin. Bu esa frazeologiyani alohida yo‘nalish sifatida tadqiq etishni talab qiladi. Shu jihatdan frazeologiya va uning sohalarini tahlil qilish, frazeologizmlarning konseptual, lisoniy va semantik modellarini yaratish, mazkur birliklarga xos milliy xususiyatlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganishda frazeologik birliklarni o‘zbek tili bilan qiyoslagan holda farqli va o‘xshash tomonlarini tahlil qilish ishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi PQ-34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishinnig ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida A.V.Kunin² frazeologik birliklarning umumiy xususiyatlari, funksional xoslanishi, rus va ingliz tillaridagi bu birliklarning o‘zaro muqobilligi masalasiga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, Sh.Balli, A.Smirnitskiy va N.Amosova³ frazeologiyani tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o‘rgandi hamda ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tahlil qildi. Y.F.Polivanov va V.V.Vinogradov⁴ rus tilidagi frazeologik birliklarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6084 son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5058351> (murojaat sanasi: 15.03.2025).

² Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М., 1972. – 288 с.

³ Bally Ch. Traite de stylistique francaise (Французская стилистика) / Перевод с французского К.А.Долинина. – М., 2001; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М., 1998. – 260 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л., 1963. – 227 с.

⁴ Поливанов Е.Ф. Избранные труды по восточному и общему языкознанию. – М.: Наука, 1991. – 623 с.; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 267 с.

semantik jihatdan guruhlagan bo'lsa, V.N.Teliya, A.P.Kovi, O.V.Kuchkildina⁵ va boshqa olimlar frazeologik birliklarni to'plab, ularning semantik-pragmatik hamda lingvomadaniy jihatlarini inobatga olib lug'at yaratganlar.

G'arb olimlari orasida M.Beshay va Y.Kamakura frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, A.Dabrovska frazeologik birliklarning sintaktik tomoniga e'tibor qaratdi. A.Granja, N.Norrik va B.Altenberg esa frazeologik birliklarning nutqiy vaziyatda qo'llanishi yuzasidan tadqiqot olib bordilar. Y.Barilova oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarni fransuz va rus tillari misolida tadqiq qildi. S.Y.Chernobay⁶ zamonaviy tilshunoslikda frazeologik sath, idiomalarning nutqqa ta'siri, ularning lisoniy xususiyatlarini o'rgandi.

O'zbek tilshunosligida uzoq yillar davomida frazeologik birliklar doirasida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Ushbu sohada Sh.Rahmatullayev⁷, B.Yo'ldoshev⁸, A.Mamatov⁹ va boshqa tilshunoslarning xizmatlari katta. Professor Sh.Rahmatullayev tomonidan frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, shakl va ma'no munosabatlari atroflicha o'rganildi, ko'plab monografiyalar yaratildi hamda o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug'ati chop etildi. Shuningdek, tilshunos olimlardan B.Yo'ldoshev frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari, A.Mamatov esa iboralarning shakllanishi doirasidagi ilmiy ishlari bilan o'zbek frazeologiyasining rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Frazeologiya sohasida A.Shomaqsudov, Sh.Rahmatullayev, M.Umarxodjayev, H.Berdiyorov, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, M.Vafoyeva, Sh.Sultonova, Sh.Ganiyevalar¹⁰ tadqiqot olib borgan bo'lsalar, turli tizimli tillar

⁵ Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996. – 86 с.; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – P. 258; Кучкильдина О.В. Обозначение концепта «Еда» в устойчивых выражениях, цитатах и афоризмах русского, английского и немецкого языков. Филология и искусствоведение. – М., 2013. – С.190-198.

⁶ Beshaj M.L. Phraseological Units used in the Functional Styles in English and Albanian Language // Mediterranean Journal of Social Sciences // pub. by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome: Vol – 4 № 2; May 2013. – P.453-456; Kamakura Y. Collocation and preposition sense: a phraseological approach to the cognition of polysemy. A thesis submitted to the University of Birmingham for the degree of Doctor of Philosophy. – The university of Birmingham, 2011. – 337 p.; Dabrowska A.A. Syntactic Study of Idioms. – Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 372 p.; Granja Á. María (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // A multilingual and multidisciplinary approach. – Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. – 382 p.; Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs. – Berlin; New York: Mouton, 1985. – 213 p.; Altenberg B. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations // Phraseology. ed. Cowie A.P. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P.101-121; Барилова Е.Э. «Еда» как фрагмент русской и французской языковой картины мира // Вестник Псковского государственного педагогического университета. Серия Социально-гуманитарные и психолого-педагогические науки. Выпуск 13. – Псков, 2011. – 152 с.; Чернобай С.Е. Определение идиомы в современной фразеологии. «Филология. Социальные коммуникации». – Украина: Симферополь, 2011. – Том 24 (63). – № 3. – С.320-321.

⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

⁸ Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013.

⁹ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

¹⁰ Шамақсудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1956; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972; Бердиёров Х. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. 3-қисм. – Самарқанд: СамДУ, 1976; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2007; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг

qiyosiy frazeologiyasi tadqiqi doirasida esa Z.Sadiqov, A.Nasirov, L.Xolmuradova, G.Adashulloyeva, N.Nasrullayeva, G.Umarjonova, S.Saidakbarova, F.Mamatova, O'.Xudoynazarovalar¹¹ ning ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Antropotsentrik tilshunoslik tadqiqi" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarning leksik, grammatik, semantik jihatlarini tahlil qilish hamda tarjima qilish muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

genetik va struktur jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan ikki til – ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklarini sinxron aspektda qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillaridagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarni struktur-semantik tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillaridagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarning hajmi va tarkibini aniqlash;

qiyoslanayotgan ikki tilning "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarini leksik, grammatik va semantik xususiyatlariga ko'ra chog'ishtirish;

o'rganilayotgan frazeologik birliklarning ekvivalentlari va analoglari hamda bunday birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish usullarini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarning leksik, grammatik, struktur-semantik, stilistik jihatlarini va tarjima usullari tashkil etadi.

шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспектлар: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 176 б.; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017.

¹¹ Садиков З.Я. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Кутадғу билиг" асарининг немисча ва инглизча таржималари қиёсий-чоғиштирма таҳлили: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020; Насиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги проverbs фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016; Холмуродова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017; Адашуллоева Г. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018; Насруллаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Самарқанд, 2018; Umarjonova G.M. Nemis va o'zbek tillarida "Hand" – "qo'l" komponentli frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Andijon, 2022; Saidakbarova S. Инглиз ва ўзбек тилларида гастронимик фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Маматова Ф.М. Инглиз ва ўзбек фразеологизмларида оилавий аъна ва муносабатларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Худойназарова Ў. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Термиз, 2022.

Tadqiqot usullari. Ishda lingvistik tavsiflash, tasniflash, chog‘ishtirish, komponent tahlil, struktur-semantik, grammatik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

“food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklarning eng qadimiy leksik qatlamlarga mansubligi, ularning ayrim semantik guruhlariga xos rivojlanish tabiati va intensivligi, bu birliklarda ma’lum madaniy kodlarning shakllanganligi, ifodalovchilarning majoziyliigi hamda metaforizatsiya imkoniyati, shuningdek, frazemalar bilan bog‘liq bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli substantiv iboralarning shaxsni tavsiflash bilan bog‘liqligi, ular ijobiy yoki salbiy bahoni o‘z ichiga olishi, har ikki tilda ham salbiy baho ifodalovchi frazemalarning son jihatidan ko‘pligi, fe‘l frazemalarda baho minosabati orqali shaxs holatining tasvirlanishi, ushbu birliklar o‘rtasidagi farqlilikning nafaqat miqdoriy, balki semantik jihatga ham bog‘liqligi isbotlangan;

har ikki til lug‘atida ham “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologizmlarning sezilarli darajada ustunligi til jamoalarining tarixiy tajribasi, madaniyati hamda ruhiy-psixologik tuzilmasidagi o‘ziga xoslik bilan ajralib turishi, shuningdek, frazeologik tasvirlar tizimini majoziy ma’noda anglashning milliy o‘ziga xos imkoniyatlari asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillari kabi tipologik va genetik jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki til tizimining “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklari tahliliga differensial yondashuv asosida frazeologik zaxiraga xos jihatlar dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologizmlar birinchi marta to‘liq o‘rganilib, ularning manbalari hamda shakllanish usullari aniqlangan, tarkibiy va semantik tasnifi berilgan;

turli tizimli tillardagi frazeologizmlarning tillararo ko‘lami aniqlangan;

o‘rganilayotgan tillardagi frazeologizmlarning leksik, grammatik, semantik xususiyatlari, ularning har ikki tildagi muqobillarini aniqlash va tarjima qilish asnosida chiqarilgan xulosalar frazeologiya sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, frazeografiya kabi fan yo‘nalishlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammal yaratilishida yangi nazariy va ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlar va faktik materiallarni qo‘llashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilgani, misollarning ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlar hamda ilmiy, badiiy adabiyotlardan olinganligi, ishning o‘rganilish doirasi aniq belgilanganligi, ishning tavsiflash, komponent tahlil kabi usullarga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, unda mamlakatimiz va xorijiy olimlarning fundamental tadqiqotlaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘plangan materiallar va olingan natijalar

kognitologiya, lingvokulturologiya, semantika, tarjimashunoslik, leksikologiya, frazeologiya kabi fanlardan ilmiy adabiyotlar yaratishda hamda kelgusida ingliz va o‘zbek tillari olam manzarasi tadqiqiga oid kognitologik, tarixiy-etimologik, milliy-madaniy, baholovchi-aksiologik tadqiqotlar olib borishga, monografiyalar yaratishga, o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu dissertatsiya natijalaridan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Zamonaviy leksikologiya”, “Mamlakatshunoslik”, “Matn lingvistikasi”, “Roman-german filologiyasiga kirish” kabi fanlarni o‘qitishda seminar, maxsus kurslar tashkil etishda ahamiyatli manba sifatida qo‘llanishi, undagi nazariy fikr-mulohazalardan lingvokognitologiya, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, leksikologiya fanlarini o‘qitishda, ingliz va o‘zbek tillarini o‘rgatish uchun dasturlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda, lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

“food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklarning eng qadimiy leksik qatlamlarga mansubligi, ularning ayrim semantik guruhlariga xos rivojlanish tabiati va intensivligi, bu birliklarda ma’lum madaniy kodlarning mavjudligi, ifodalovchilarning majoziyliigi hamda metaforizatsiya imkoniyati, har ikki tilda ham salbiy baho ifodalovchi frazemalarning son jihatidan ko‘pligi, shuningdek, frazemalar bilan bog‘liq bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar dalillanganligi; ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli substantiv iboralarning shaxsni tavsiflash bilan bog‘liqligi, ular ijobiy yoki salbiy bahoni o‘z ichiga olishi, har ikki tilda ham salbiy baho ifodalovchi frazemalarning son jihatidan ko‘pligi, fe’l frazemalarda baho minosabati orqali shaxs holatining tasvirlanishi, ushbu birliklar o‘rtasidagi farqlilik nafaqat miqdoriy parametrarga, balki semantik tomonga ham bog‘liqligi haqidagi ilmiy xulosalardan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining F3-2019081663-raqamli “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 30-sentabrdagi 1/04-125-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy jihatdan takomillashtirilgan;

har ikki til lug‘at tarkibida “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologizmlarning sezilarli darajada ustunligi til jamoalarining tarixiy tajribasi, madaniyati hamda ruhiy-psixologik tuzilmasidagi o‘ziga xoslik bilan ajralib turishi, shuningdek, frazeologik obrazlar tizimini majoziy ma’noda anglashning milliy o‘ziga xos imkoniyatlari borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat kengashining “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda yoshlar ishlari agentligining faoliyati va ustuvor vazifalari” nomli bir haftalik seminar-treynning, uchrashuvlar va yoshlarning intellektual salohiyati hamda ma’naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida “Yosh kitobxon” respublika tanlovining 2023-yilgi mavsumi Farg‘ona

viloyati bosqichini o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 17-yanvardagi 2-15-21-272-son ma'lumotnomasi). Natijada kitobxonlikning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga nisbatan aksiologik (qadriyatli) munosabatlarni yanada yuksaltirishga erishilgan.

ingliz va o'zbek tillari kabi tipologik hamda genetik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki xil til tizimining "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklar tahliliga differensial yondashuv asosida frazeologik zaxirasining o'ziga xos milliy-madaniy tabiati yuzasidan berilgan xulosa hamda tavsiyalardan Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-2024-yillarda efirga uzatilgan (Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-sentabrdagi 01-12/141-son ma'lumotnomasi). Natijada "Ma'naviyat sarchashmasi", "Adabiy muhit", "Maxsus reportaj", "Jarayon" ko'rsatuvlari uchun telenamoyish va radio eshittirishlar uchun materiallar tayyorlashda foydalanilgan. Natijada mazkur ko'rsatuv materiallari ingliz va o'zbek tillardagi "food/oziq-ovqat" komponentli frazeologik birliklarga oid materiallar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ushbu tadqiqot ishi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta va 1 ta Scopus bazasida indekslangan maqola nashr qilingan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlanib, unda frazeologik birliklarning vazifasi, qo'llanish o'rni va o'ziga xos semantikasi tavsiflangan. Bobning birinchi fasli "*Frazeologizmlar tadqiqi va tasnifi masalasi*"ga bag'ishlangan.

Frazeologiya va uning birliklari xalq tarixi, madaniyati, kelib chiqishi, turmush tarzi hamda milliy tabiatining o'ziga xosligini aks ettiradi. Olamning lisoniy manzarasi uning odamlar ongida mantiqiy aks etishi bilan muvofiq kelsada, lekin unda mantiq qonunlariga bo'ysunmaydigan alohida sohalar ham saqlanib qoladi. Frazeologizmlar shunday sohalardan bo'lib, u har bir tilda turlicha namoyon bo'ladi. Olamning paremiologik manzarasi mahsuli sifatida

frazeologizmlar dunyoni tasvirlash uchun emas, balki uni sharhlash, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish asnosida paydo bo'lgan.

“Frazeologiya” termini yunoncha *frasis* – “ibora”, *logos* – “fan”, ya’ni iboralar haqidagi bilimlarni bildiradi. Frazeologiya – frazeologik birliklar bo‘lib, ma’lum bir tildagi turg‘un va barqaror birikmalarning majmui hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya leksikologiyaning salmoqli qismi, ma’lum bir sohasi sifatida o‘rganiladi. Frazeologizmlar kamida ikkita mustaqil so‘zdan tashkil topadi va ularda yaxlit ko‘chma ma’no ifodalanadi.

Dastlab fransuz tilshunosi, soha asoschisi Sh.Balli o‘zining “Stilistika”, “Fransuz tili stilistikasi” kabi asarlariga frazeologiyaga oid boblarni kiritdi. Uning “Stilistika”¹² nomli asarida frazeologik birliklarning to‘rt guruhi ajratildi. Sh.Balli mazkur asarida frazeologik birliklarni muhokama qilishni yakunladi va bu birliklarni ikkita guruhga bo‘ldi: erkin birikmalar va turg‘un birikmalar. Uning qarashlarida frazeologizmlar erkin so‘z birikmalari sifatida tavsiflangan bo‘lsa-da, bizningcha, bu turdagi birliklar erkin emas, ular aynan tayyor, qoliplangan holda nutqqa olib kiriladi. V.Vinogradov frazeologiyani alohida soha, A.Kunin o‘ziga xos muloqot “til”i, N.Amosova esa til fanining muayyan sohasi va tarmog‘i sifatida tavsiflagan.

Professor A.Kunin frazeologik birlik (FB) – bu butunlay qayta ko‘rib chiqilgan ma’noga ega potensial so‘zlar birikmasi va qisman qayta ishlangan ma’noli, haqiqiy so‘zlar bilan potensial so‘zlar kombinatsiyasi¹³, degan xulosaga keldi. Bu ta’rif frazeologik birliklarni tavsiflovchi quyidagi asosiy xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi:

a) frazeologik birliklarning asl mohiyati ular asosida vujudga kelgan ma’no ko‘chishi bilan tavsiflanadi;

b) nutqda majoziy ma’no kasb etgan so‘zlarning ma’lum birikmalari birlashtiriladi va ular barqarorlik xususiyatini namoyon etadi;

v) frazeologik birlik komponentlarini almashtirish faqat variantlilik doirasida kuzatiladi;

d) frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi so‘zlar – komponentlar leksik ma’nosining zaiflashuvi tufayli rivojlanadi.

N.Amosova frazeologik birliklarning ikki turi – frazemalar va idiomalarni ajratadi. Uning fikricha, frazema doimiy kontekst birligi bo‘lib, unda ushbu so‘z ma’nosini amalga oshirish uchun yagona va doimiy ko‘rsatkich minimumi zarur. N.Amosovanning talqiniga ko‘ra, frazemalarga qarama-qarshi bo‘lgan iboralar doimiy kontekst birliklari bo‘lib, unda indikativ va semantik jihatdan bajariluvchi elementlar o‘zaro teng bo‘ladi hamda ikkalasi ham so‘z birikmasining umumiy leksik tarkibi bilan ifodalanadi. Idioma ma’nosi butun birikmaning yaxlit ma’nosini ifodalaydi¹⁴. Masalan:

to dangle a carrot before smb – kimnidir yo‘ldan ozdirmoq;

to break bread with smb – ovqatini kim bilandir baham ko‘rmoq.

¹² Bally Ch. *Traite de stylistique française* (Французская стилистика) / Перевод с французского К.А.Долинина. – М., 2001. – С.392.

¹³ Кунин А.В. *Фраzeология современного английского языка*. – М., 1972. – С.109.

¹⁴ Amosova N. *Fundamentals of English Phraseology*. – Leningrad: Leningrad University, 1963. – P.98.

Frazeologiya borasida A.I.Smirniskiy qarashlarida biroz farqlilikni kuzatishimiz mumkin, chunki frazemalar tilning ekspressiv-hissiy bo‘yoqdorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Olim o‘z tadqiqotlarida frazemalarni ekspressiv va hissiy tomonlarga ega bo‘lmagan barqaror birikmalar sifatida e’tirof etadi. Bizningcha, bu fikrda biroz noqislik mavjud va tahlillarimiz davomida bu xususda o‘z mulohazalarimizni bayon etamiz.

Mazkur bobning “*Ingliz va o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o‘rganilishi*” nomli ikkinchi faslida ingliz va o‘zbek tilshunosligida FBnlarni tadqiq qilgan tilshunoslarning tadqiqotlari keltirilgan hamda tahlilga tortilgan.

Frazeologiyaning lingvistik fan sifatida paydo bo‘lishi rus olimi V.V.Vinogradov¹⁵ nomi bilan bog‘lanadi. Ingliz va amerikalik lingvistlarning frazeologiya nazariyasiga bag‘ishlangan maxsus ishlari sanoqli. Ingliz tilshunos olimlari frazeologiyani lingvistik fan sifatida belgilash masalalariga to‘xtalmaganlar, frazeologik birliklar tasnifi va ularning tarkibi bo‘yicha yakdil qarashga ega emaslar.

Ko‘plab frazeologik birliklar ingliz variantiga amerika lingvomadaniyatidan kirib kelgan bo‘lib, ular o‘zlashma birliklar hisoblanadi: *look like a million dollars – ko‘rinishing ajoyib*. Ingliz frazeologik birliklarining ba‘zilari bir vaqtlar amerikalik yozuvchilar tomonidan yaratilgan va zamonaviy ingliz tilida keng tarqalgan.

Ingliz olimi H.Svit ta’kidlaganidek, “har bir frazeologizmning ma’nosi alohida bir borliqdir. Uning ma’nosini tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan keltirib chiqarib bo‘lmaydi”¹⁶. Yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tgach, mohiyatan shunga o‘xshash talqinlar B.Hillel, G.Kouen, Ch.Fries, E.Nida va M.Pielar¹⁷ ning tadqiqotlarida uchraydi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaga oid tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlandi. Shu kunga qadar o‘zbek tilshunos olimlari – A.Shomaqsudov, Sh.Rahmatullayev, M.Xusainov, E.Umarxodjayev, M.Abdurahimov, H.Berdiyorov, Sh.Usmonova, M.Xalikova, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, Sh.G‘aniyeva, Sh.Alimamatova, M.Vafoyevalar¹⁸ frazeologiya

¹⁵ Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.

¹⁶ Sweet H. The practical study of languages. – London: Oxford University Press, 1964. – P.139.

¹⁷ Bar-Hillel Y. “Idioms” in Machine translation of Languages. – Cambridge: M.I.T. Press, 1955; Cowen G.M. Some aspects of the lexical structure of a Mazatec historical text. Publications in Linguistic and Related Fields. –№.11. – Norman: Oklahoma Summer Institute of Linguistic, 1965; Fries Ch.C. Preparation of teaching materials, practical grammars and dictionaries, especially for foreign languages, in Proceedings of the Eighth International Congress of languages. – Oslo: University of Oslo Press, 1958. – P.738-746; Nida E.A. A system for the description of Semantic Elements // Word. Vol.7, 1951. – P. 1-14; Pie M. Glossary of linguistic terminology. – New York: Colombia University Press, 1966.

¹⁸ Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, 1956; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972; Абдурахимов М. Узбекско-русских словарь афоризмов. Под. Ред. Иванова С.Н. – Ташкент: Ўқитувчи, 1976; Бердиёров Х. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. 3-кисм. – Самарканд, 1983; Усманова Ш. Соматические фразеологизмы в узбекском и турецком языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарканд, 2007; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол.

bo'yicha qator tadqiqotlar olib bordilar va bu boradagi o'z ilmiy qarashlarini hamda xulosalarini bayon etdilar. Shu o'rinda turli tizimli tillarning chog'ishtirma tadqiqi doirasida Z.Sadiqov, A.Nasirov, L.Xolmuradova, X.Xomidov, N.Nasrullayeva, A.Musayev, N.Tursunova, S.Saidakbarova, F.Mamatova, O'.Xudoynazarovalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar¹⁹ni alohida qayd etish zarur.

Sh.R.Usmonova, U.M.Rashidova, N.A.Turapova va G.M.Umarjonovalar²⁰ frazeologizmlarni turli aspektlarda o'rganganlar. Shunday bo'lsa-da, o'zbek tilida mavjud frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni, ularning lug'at boyligida tutgan o'rni, shuningdek, semantik, grammatik va paradigmatik xususiyatlari yetarlicha tahlilga tortilmagan.

Ushbu bobning uchinchi fasli *“Ingliz va o'zbek tillarida “food/oziq-ovqat” konsepti chog'ishtirma tadqiqot obyekti sifatida”* deb nomlangan hamda mazkur konseptning lingvokognitiv talqini va tahliliga bag'ishlangan.

Bugungi kunda konseptual tahlil zamonaviy kognitiv tilshunoslikning yetakchi tadqiqot usullaridan biri sifatida frazeologiya tadqiqotchilarining e'tiborini ham tortib kelmoqda. Ma'lumki, oziq-ovqat barcha xalqlarda o'ziga xos ma'no anglatuvchi tushuncha sanaladi. Bu borada ingliz va o'zbek tilshunosligida *“food/oziq-ovqat”* konseptini chog'ishtirib, ularning kognitiv jihatlarini tadqiq qilish bugunga qadar amalga oshirilmagan. Sharq va g'arb tillari orasidagi chog'ishtirma aspektidagi tadqiqotlar esa salmoqli darajada amalga oshirilgan. Sharq tilshunoslari ko'p hollarda ma'lum tillardagi konseptual metaforalarni tahlil qilishga e'tibor qaratganlar. Bu esa o'zbek tilshunosligida ingliz va o'zbek tillaridagi *“food/oziq-ovqat”* komponentli FBlarning qiyosiy tadqiqi dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2017; Алмаматова Ш.Т Ўзбек тилида фраземаларнинг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2009.

¹⁹ Садиков З.Я. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутағду билиг” асарининг немисча ва инглизча таржималари қийсий-чоғиштирма таҳлили: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020; Насиров А.А Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2016; Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2017; Хомидов Х.Х. Турк тилида фразеологизмларнинг юзага келиши, маъно ва грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2018; Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Самарқанд, 2018; Мусаев А.С. Рус тили изоҳли луғатларида феъл фразеологизмларнинг грамматик ишланмаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Жиззах, 2019; Турсунова Н.Ф. Турли тизimli тиллардаги миллий-маданий хусусиятларни ифодаловчи фразеологизмлар ва уларнинг лингвокультурологик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2021; Саидакбарова С.П. Инглиз ва ўзбек тилларида гастронимик фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2021; Маматова Ф.М. Инглиз ва ўзбек фразеологизмларида оилавий аъна ва муносабатларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2022; Худойназарова Ў.А. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Термиз, 2022.

²⁰ Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик иборалар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998; Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (қўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2018; Турапова Н.А. Япон ва ўзбек тиллари соматик фразеологизмларининг чоғиштирма таҳлили (лингвомаданий аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2020; Умаржонова Г.М. Немис ва ўзбек тилларида “Hand” – “қўл” компонентли фразеологик birlikларнинг чоғиштирма таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2022.

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchilar ongida “food/oziq-ovqat” tushunchasi “oziqlanish jarayoni bilan bog‘liq artefakt”²¹ sifatida belgilanadi. Ingliz lingvomadaniyatida bu tushunchaga batafsilroq ta‘rif berilgan bo‘lib, oziqlanish faoliyati subyekti – odamlar, hayvonlar yoki o‘simliklar ham bo‘lishi mumkin. Bunday substansiyani qo‘llash bilan bog‘liq maqsad o‘zbek lingvomadaniyatida kuzatilmaydi. Kembridj lug‘ati²² da *food* so‘zi “odamlar va hayvonlar ovqatlanadigan yoki o‘simliklar tirik qolishlari uchun o‘zlashtiradigan narsa” sifatida bo‘lsa, Oksford lug‘ati²³ da bu so‘zga “hayot va o‘shni saqlab qolish uchun odamlar yoki hayvonlar yeydigan va ichadigan yoki o‘simliklar o‘zlashtiradigan har qanday ozuqaviy moddalar” sifatida qaraladi. O‘zbek tilida o‘simliklarning oziqlanishi oziq-ovqat turiga kiritilmaydi, ingliz madaniyatida esa oziq-ovqat sifatida qabul qilinadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”²⁴ da oziq-ovqat so‘zi quyidagicha izohlanadi:

“oziq-ovqat” – turli oziq va ovqatlar, yemishlar;

“taom” [طعام – yemish, ovqat, yegulik] – pishirilgan, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa; ovqat. O‘zbek tilidagi izohlarda bu so‘z ovqatlanish (taomlanish)ni nazarda tutadi. Ingliz lingvomadaniyatida esa ushbu so‘z ba‘zan “intellektual oziq” yoki “tafakkurga turtki bo‘ladigan narsa” tarzida ko‘chma ma‘noda ham ishlatiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklarning ma‘nolari ular tarkibidagi so‘zlar leksik ma‘nolariga bevosita bog‘liq emas. Biroq ularning talqini turli xalqlarning tegishli sohadagi assotsiativ modellariga xos xususiyatlarni ham aks ettirishi mumkin. Masalan, ingliz tilida *food for thought* (“fikrlash uchun aqliy rag‘batlantirishni ta‘minlaydigan har qanday narsa”); o‘zbek tilida *ovqat* – “rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa”. Ushbu ta‘riflar “food/oziq-ovqat” komponenti har ikki tilda ham ijobiy ma‘noga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “Ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologizmlarning lisoniy tahlili” nomli ikkinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi.

Bobning birinchi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida “food/oziq-ovqat” komponentli FBning leksik tadqiqi*” deb nomlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillaridagi FBning leksik jihati tahlilga tortilgan.

Dissertatsiyada oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarni tarkibidagi yegulik nomlarining muayyan xususiyatlari, ya‘ni ko‘rinishi, ta‘mi yoki boshqa jihatlari bilan bog‘liq holda tasnif qildik. Har ikki til frazemalarida qanday turdagi “food/oziq-ovqat” nomlarining ishlatilishini aniqlash uchun bu tillarda oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi frazeologizmlar komponent tahlil qilindi va quyidagicha tavsiflandi.

²¹Paradis J., Emmerzael K., Duncan T.S. Assessment of English language learners: Using parent report on first language development // *Journal of communication disorders*, 2010. – № 43 (6). – P.474-479.

²² Cambridge online dictionary. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/food#google_vignette (murojaat sanasi: 23.11.2024).

²³Oxford online dictionary. <https://www.oed.com/search/dictionary/?scope=Entries&q=food> (murojaat sanasi: 23.11.2024).

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўз МЭ, 2006-2008. – Б.94.

1. **Un va boshoqli mahsulot nomlari.** Ingliz va o'zbek tillarining frazeologik fondida *non* (bread), *xamir* (dough), *arpa*, *zuvala* so'zlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklar mavjudligi aniqlandi. Bu kabi frazeologik birliklar inson hayoti uchun muhim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining ahamiyatini ta'kidlash uchun xizmat qiladi: *arpasini xom o'rmoq*, *noni butun (yarimta)*, *xamir uchidan patir*, *zuvalasi pishiq*; *bread and cheese (oddiy, kamtarona hayot)*.

2. **Ziravorlar va qaylalar nomlari.** Har ikki til frazeologik birliklari orasida *salt(tuz)* so'zi asosida tashkil topgan frazeologizmlar ancha salmoqli. *Tuz* oziq-ovqat mahsulotlari ichida eng asosiylaridan sanaladi. *Tuzini yeb tuzlig'iga tupurmoq*; *the salt of earth* (mehnatkash odamlar).

3. **Sut mahsulotlari nomlari.** Ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida sut va undan tayyorlangan *sut(milk)*, *zardob(whey)*, *qatiq(yoghurt)*, *pishloq(cheese)* mahsulot nomlari deyarli bir xil miqdorda uchraydi: *ona suti og'zidan ketmagan*; *cry over spilt milk* (o'tib ketgan ish uchun qayg'urmoq), *big cheese* (muhim odam).

4. **Go'sht mahsulotlari nomlari.** O'zbek tilidagi frazeologizmlar tarkibida go'sht mahsulotlari "yegulik" ma'nosida ingliz tiliga nisbatan anchagina kam qo'llanishi ma'lum bo'ldi. O'zbek tilida *go'sht* leksemasi oziq-ovqat ma'nosida ishlatiladi, ingliz tilida esa *meat (go'sht)*, *beef (mol go'shti)*, *pork (cho'chqa go'shti)*, *bacon (tuzlangan cho'chqa go'shti)*, *steak (lahm go'sht)*, *ribs (qovurg'a)* kabilar frazeologizmlar tarkibida uchraydi. O'zbek tilida *tuya go'shti yegan*; *bir-birining go'shtini yemoq*; ingliz tilida *fresh meat (tajribasiz yangi odam)*, *make meat of smb* (oson mag'lub etmoq).

5. **Taom nomlari.** O'zbek tilida *chuchvara*, *lag'mon*, *somsa*, *kabob*, *osh*, *sho'ruva*, *shavla* kabi, inglizlarda esa *pudding*, *soup* kabi milliy taom nomlari FBlar tarkibida ishtirok etadi: *chuchvarani xom sanamoq*, *og'zidagi oshni oldirmoq*; *pudding time* (qulay vaqt), *be in the soup* (muammoli vaziyatda bo'lmoq).

6. **Meva va sabzavot mahsulotlari nomlari.** Iboralar tarkibida *olma*, *qovun*, *tarvuz*, *apelsin*, *banan*, *limon* kabi ho'l mevalar; *mayiz*, *yong'oq*, *mag'iz* kabi quruq mevalar, shuningdek, *potato(kartoshka)*, *cabbage(karam)*, *onion(piyoz)* kabi sabzavot nomlarini uchratishimiz mumkin: *olma pish*, *og'zinga tush*, *bir mayizni qirq kishi bo'lib yemoq*; *the apple of one's eye* (ko'z qorachig'iday asramoq).

7. **Baliq mahsulotlari nomlari** ingliz tili frazeologizmlari tarkibida mavjud, chunki bu til egalari, asosan, orol va dengiz bo'yidagi mamlakatlarda istiqomat qilishadi. O'zbek tilida esa bu komponentli frazeologizmlar uchramaydi: *feel (be) like a fish out of water* (o'zini noqulay his qilmoq); *feed the fishes* (halok bo'lmoq).

8. **Ichimlik nomlari** ingliz va o'zbek madaniy belgisi sifatida iboralar tarkibida uchraydi: *choy*, *ayron*, *suv*; ingliz tilida esa *qahva(coffee)*, *pivo(beer)*, *vino(vine)*, *sharob(whisky)*. Masalan: *ayroni achimagan*, *suvdan quruq chiqmoq*; *beer and skittles* (vaqtini chog' o'tkazmoq), *coffee and cakes* (kamtarona daromad).

9. **Shirinlik nomlari.** Frazeologizmlar tarkibida kam qo'llanadigan komponentlardan biri shirinlik nomlari hisoblanadi. Ingliz tilida 6 ta (*honey*, *jam*,

chocolate, jelly, pie, cake), o‘zbek tilida 2 ta (*holva, bol*) shirinlik nomlari frazeologizmlar tarkibida uchraydi: *so‘zidan bol tommaq; cakes and ale* (hayotdan zavqlanmoq), *pie in the sky* (amalga oshishi qiyin bo‘lgan orzular).

10. **Boshqa mahsulot nomlari.** Ingliz tilida *mustard(xantal), egg (tuxum), salad(salat), oil(yog‘)* va o‘zbek tilida *tuxum, yog‘, moy* kabi so‘zlar frazeologizmlar tarkibida qo‘llaniladi: *to butter up* (yog‘lamoq, xushomad qilmoq), o‘zbek tilida esa *yog‘ tushsa yalaguday*.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Chog‘ishtirilayotgan tillarda “food/oziq-ovqat” tarkibli FBning grammatik tahlili*” ga bag‘ishlanadi.

Ingliz olimi L.Smit o‘z asarlarida FBning grammatik xususiyatlariga jiddiy e‘tibor qaratgan²⁵, A.V.Kunin esa nominativ, substantiv, adyektiv, ravish FBnlarni; tarkibida fe‘l va undov so‘zlar qatnashgan FBlarning nominativ va kommunikativ turlarini; tarkibiga maqol hamda matallar kiruvchi kommunikativ FBnlarni ajratib ko‘rsatgan²⁶.

“Turkumlik” semasi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning ma‘lum turkumga mansubligiga ishora qiladi va bunday birliklar o‘zi mansub bo‘lgan turkumning sintaktik munosabat shakliga ega bo‘ladi hamda o‘z turkumiga xos sintaktik maqomni egallaydi²⁷. Biz dissertatsiyada amalga oshirgan grammatik tahlillarimizda turkumlik semasini ham inobatga oldik. Ingliz va o‘zbek tillaridagi FBlar tarkibidagi so‘zlar turkumiga ko‘ra substantiv (ot) konstruksiyali FBlar, ya‘ni bir komponentli, ikki komponentli, ko‘p komponentli FBlarga shuningdek, sifat, fe‘l, olmosh va son konstruksiyali FBlarga ajratildi.

I. Ingliz va o‘zbek tillari uchun eng xarakterli FBlar substantiv, ya‘ni (ot) konstruksiyali FBlar sanaladi. Ingliz tilida: *the baron of beef* – semiz odam; o‘zbek tilida esa *yog‘li ish*.

Tarkibi jihatidan bunday FBlar uch guruhga bo‘linadi:

1) bir komponentli substantiv FBlar: *butter up* – xushomad qilmoq, *old bean* – yaqin va yaxshi do‘st;

2) ikki komponentli substantiv FBlar: *oil and vinegar* (xuddi yog‘ va uksusday) ~ murosasiz qarama-qarshiliklar haqida; *bread and butter* (non va yog‘) ~ “tirikchilik”; o‘zbek tilida *o‘t bilan suvdek*;

3) ko‘p komponentli substantiv FBlar: *bone of the bone and flesh of the flesh* ~ “eng yaqin munosabat”.

II. Ingliz tilida **sifat+ot** tarkibli frazeologik birliklar uchraydi: *a hot potato* (qaynoq kartoshka) ~ “yoqimsiz savol”; *sweetie pie* (shirin pirog) ~ “yoqimli”.

O‘zbek tilida, asosan, **ot+sifat** tarkibli FBlar uchraydi: *sutdek oq* – “pokdomon, pokdil, mutlaq begunoh”; *zuvalasi pishiq* – “tanasi chiniqqan”.

III. Fe‘l frazemalar eng ko‘p tarqalgan frazeologik birliklar sanaladi. Buni o‘zbek tili leksik tizimida harakatni ifodalovchi birliklar ko‘p ekanligi bilan izohlash mumkin. Masalan, ingliz tilida: *to feed one’s sight* (birovning nigohiga boqmoq) ~ hayratlanmoq, tomoshadan zavqlanmoq, ko‘zni quvontirmoq; *bite off more than one can chew* – kuchi yetmaydigan ishga chiranmoq.

²⁵Смит Л.П. Фразеология английского языка. – М.: Учпедгиз, 1959. – С.8.

²⁶Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С.343-363.

²⁷Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.52.

O'zbek tilida ham so'z birikmasi va gapga teng FBlar uchraydi: *bir mayizni qirq kishi bo'lib yemoq* – “ahil-inoq bo'lib yashamoq”; *sho'riga sho'rva to'kildi* – “katta baxtsizlikka yo'liqmoq, xarob bo'lmoq”.

IV. O'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilida alternantlar, ya'ni olmoshlar one, one's, oneself, smb va smth so'zlari orqali ifodalanadi: *to earn one's bread* (tirikchilik qilish); *to eat one's cake and have it* (bir-biriga qarama-qarshi narsani birlashtirmoq).

